Tizimli bilish kompetentligining mazmuni va uning maktabgacha ta'limdagi o'rni	696
Mirazimova Muxabbat Normatovna	
O'qituvchilik mahorati va axloqiy madaniyatning mushtarakligi.....	700
Nabiyev Islom Karimovich	
Qarshi shahrida turizm menejerlarining kasbiy malakasini uzluksiz takomillashtirishni ta'minlash	706
Normurodova Zebo Eshmaxmatovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida moslashuvchan kompetensiyalarni shakllantirishning metodik asoslari....	710
Nuriddinova Diyora Isaqali qizi	
Mediasavodxonlik vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari.....	714
Pardayev Asror Ikromovich	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi	718
Qayumova Mahfuzaxon Alisher qizi	
Yuqori sinf o'quvchilarining ma'naviy kompetentligini jadidlarning pedagogik qarashlari asosida shakllantirish metodikasi (Temurbeklar maktablari misolida)	724
Quldashev Murodjon G'aniyevich	
Bugungi voleybolda to'p uzatish texnikasi va aniqligini 13–14 yoshdan boshlab aylanish harakatlari ta'sirida shakllantirish afzalligi	727
Rejapov O'tkirbek G'ayratjon o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga bolalar o'yin folklorini o'rgatishda tolerantlikni rivojlantirishning metodik usullari va texnologiyalari.....	733
Ro'ziboyeva Madina Salimovna	
Pedagogik muloqot tushunchasi va uning o'ziga xos xususiyatlari	737
Ro'zimatova Maxpuza	
Intellektual qadriyatlarning talaba yoshlar aksiologik hayotiy pozitsiyasini shakllantirishdagi roli	743
Rustam Latipov Mamadaliyevich	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlashda AI-platformalarni integratsiyalashning amaliy mexanizmlari	747
Rustamov Kamoliddin Ziyodillo o'g'li	
Maktab biologiya ta'limida individuallashtirish texnologiyasidan foydalanish metodikasi.....	754
Savutova Malohat Erkinovna	
Bo'lajak o'qituvchilarning turizm sohasiga bo'lgan munosabatini o'rganishning ijtimoiy-pedagogik metodikasi.....	760
Shodiyorov Rustam Xasan o'g'li	
Bo'lajak harbiy xizmatchilarda deontologik yondashuvlar asosida raqamli muloqot madaniyatini shakllantirish.....	764
Soyibnazarov Baxtiyor Abdunazar o'g'li	
Pedagogika oliy o'quv yurtlarida umumiy yer bilimi fanidan amaliy mashg'ulotlar tizimini kasbiy faoliyatga yo'naltirishning dolzarb masalalari.....	770
Sultanova N. B.	
Ijtimoiy reabilitatsiyani amalga oshirishda tibbiy-psixokorreksion maslahat ishlar mazmuni.....	775
Suvanqulova Shaxnoza Karimqulovna	
Blokcheyn texnologiyasining ta'lim jarayonida qo'llanilishi va imkoniyatlari	780
Suyumov Jo'rabek Yunusaliyevich	



Oila va xotin-qizlar tizimida kollaborativ madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari	783
<i>Tojibayeva Nazokatxon</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkurini rivojlantirishda interfaol metodlarning o'rni	787
<i>To'xtasinova Nigoraxon Azizxon qizi</i>	
Oliy o'quv yurtlarida analitik kimyo fanini o'qitishning samaradorlik ko'rsatkichlari	793
<i>Umrbekova Maftuna Ulug'bek qizi</i>	
Antroposentrik yondashuv asosida o'quvchilarda insonparvarlik fazilatlarini shakllantirish yo'llari	796
<i>Xamidova Nigora Ibrohimovna</i>	
Обучение говорению на русском языке абитуриентов с помощью настольных игр	800
<i>Абдулахадова Шохид</i>	
Особенности педагогической деятельности и их виды	803
<i>Мавжудова Ш. С., Мирходжаева Д.</i>	
Развитие критического мышления младших школьников на уроках читательской грамотности	808
<i>Мухаммадиева Марифат Мурод кизи</i>	
Искусство подбора слов: стилистические и семантические возможности перифраз	811
<i>Юлдашева Дилноза Бекмуродовна</i>	
Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida talabalarda refleksiv tafakkurni rivojlantirishning vazifalari va pedagogik imkoniyatlari	815
<i>Abdullayeva Ziroatxon Qurbonovna</i>	
The Human Factor in AI-Mediated English Instruction: Balancing Technology and Pedagogical Expertise	818
<i>Ikramova Aziza Aminovna</i>	
Madaniyat tushunchasi va uni xorijiy til o'qitishda o'rganish zarurati	823
<i>Ma'murova Farangiz Ne'matovna</i>	
O'quvchilarda tanqidiy tafakkurni shakllantirish: zamonaviy pedagogik yondashuvlar va ularning samaradorligi	827
<i>Ostonova Ma'mura Ulug'bek qizi</i>	
Ko'zi ojiz boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentsiyasini o'rganishning nazariy asoslari	830
<i>Qarshiboyev Asliddin</i>	
Farzand tarbiyasida ota-onaning pedagogik-psixologik malakalari	834
<i>Xojimirzayeva Shaxnoza Shokir qizi</i>	
Darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'llashning tashkiliy-ilmiy asoslari	839
<i>Xolmatov Pardaboy Qoraboevich</i>	
Методология типологического и сравнительного анализа детского фольклора	844
<i>Азмиева Э. Э.</i>	
Мaktabgacha ta'lim elementar matematik tushunchalarni rivojlantirish zarurati	851
<i>Xoldarova F. M.</i>	
Multimadaniy muhitda pedagoglarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish mexanizmlari	854
<i>Gulyamova Nafisa Burikulovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyat tushunchalarini shakllantirishda oila va mahallaning roli	858
<i>Rizayeva Xusniya Ubayevna</i>	
Raqamli pedagogika: zamonaviy ta'limda innovatsion texnologiyalar roli	861
<i>Maxmudova Dilnoza Xaytmirzaevna</i>	
Badiiy adabiyot – maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik dunyoqarashni shakllantiruvchi omil sifatida	865
<i>Xujamberdiyeva Shahnoza Kupaysinovna</i>	
Yangi O'zbekistonda inklyuziv ta'lim islohatlar bosqichida	868
<i>Boyqulov Azamat Maxram o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor o'rinbosarlarining menejerlik ko'nikmalarini rivojlantirishning xorijiy tajribasi va uni mahalliy sharoitda qo'llash imkoniyatlari	871
<i>Maxamadaliyeva Ezoza Rustamxo'ja qizi</i>	
Oliy badiy pedagogik ta'lim muassasasida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini maktab o'quvchilarida illyustrativ rasm ishlashga oid kompetensiyalarini shakllantirishga tayyorlashning mazmuni	875
<i>Sobirov Sarvar Tursunmurotovich</i>	



MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARGA CHET TILI O'RGATISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI

Ergasheva Xilola Yunusxonovna

Impuls tibbiyot instituti dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'limda yosh avlodga samarali ta'lim metodlaridan foydalanish orqali chet tillarini o'rgatish hamda uni amaliyotga tatbiq etishda yuqori malakali kadrlar va zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning psixologik jihatlarini yoritilgan.

Kalit so'zlar: texnologiya, metod, o'qitish, bolalar, malakali, samarali ta'lim.

Abstract: This article examines the psychological aspects of using highly qualified personnel and modern technologies in teaching and introducing foreign languages into preschool education through the application of effective teaching methods.

Key words: technology, method, teaching, children, qualified staff, effective education.

Аннотация: В данной статье рассматриваются психологические аспекты использования высококвалифицированных кадров и современных технологий при обучении и внедрении иностранных языков в дошкольное образование с применением эффективных методов обучения.

Ключевые слова: технология, метод, обучение, дети, квалифицированные кадры, эффективное образование.

KIRISH

Bugungi kunda xorijiy tillarni bilish ko'nikmasi ta'limning ajralmas qismlaridan biri bo'lib bormoqda. Bu maktabgacha ta'lim jarayonini ham chetda qoldirgani yo'q. Yoshlar ta'limi davomida xorijiy tillarni o'rgatishning ahamiyati sezilarli darajada oshdi. Hozirgi kunda maktabgacha ta'limga e'tibor berish – davlatning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy jihatdan rivojlanishini ta'minlash demakdir. Yoshlarimiz zamonaviy va har taraflama yetuk malakaga ega kadr bo'lib yetishishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Bundan tashqari, yuksalish asrida bilim olishga anchagina ko'proq e'tibor qaratilgan.

Maktabgacha ta'limning maqsadi – bolani maktabga tayyorlash, o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish, uning qobiliyatlarini namoyon qilishiga ko'maklashishdir. Shularni inobatga olgan holda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-son¹ qarori va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-son² qarori tasdiqlandi. Ushbu hujjatlarda maktabgacha ta'lim tizimi tarmog'ini yanada kengaytirish, bolalarni o'qitishning zamonaviy hamda samarali metodikalaridan foydalanish, maktabgacha ta'lim muassasalarini malakali kadrlar bilan ta'minlash va bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash kabi masalalar aks etgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim jarayonida nutqni o'stirish, bolalarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish masalasi bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. M. Berdiyeva va S. Bo'ranova o'z ishlarida mashg'ulotlarni samarali tashkil etish orqali bolalarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish muhimligini

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-son qaror: <https://lex.uz/docs/-3923110>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-son qaror: <https://lex.uz/docs/-4327235>



ta'kidlagan. Ularning fikricha, ta'lim jarayonida turli interfaol usullar va ijodiy topshiriqlar qo'llanishi bolalarning tafakkurini kengaytirib, nutqiy faolligini oshiradi.

Ingliz tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish masalasini F.M. Muminova o'rganib chiqqan. U ta'kidlaganidek, multimedia vositalari, interfaol dasturlar va o'yin texnologiyalari maktabgacha yoshdagi bolalarning chet tilini tez va samarali o'zlashtirishiga yordam beradi. Ayniqsa, nutqni rivojlantirishga qaratilgan dasturiy vositalar ularning qiziqishini oshiradi va ta'lim samaradorligini ta'minlaydi.

Chet til o'qitish metodikasi sohasida Jalolov J.J. tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda o'qitishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Unga ko'ra, o'yin texnologiyalari, muloqotga asoslangan mashg'ulotlar va o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos metodlar ta'lim samaradorligini oshiradi. Shuningdek, David A. J., Eggen P. va Kauchak P. tomonidan taklif etilgan ta'lim usullari ham bolalarning bilim olish jarayonini rag'batlantirish va ularni faol ishtirokchi sifatida shakllantirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maktabgacha ta'lim – yoshlarimiz ta'limi va tarbiyasining ilk bosqichi hisoblanadi. To'g'ri maktabgacha tarbiya dasturi bolalarimizning noyob aqliga mos keladigan tarzda o'sishi va o'rganishiga yordam berishi kerak. Ammo bolalar kattalarnikidan farqli ravishda kelajakni, ertani o'ylab o'rganmaydilar. Ingliz tilidagi mashg'ulot "shu yerda va aynan hozir" ma'nosida o'tkazilishi kerak. Bolalar chet tilini hikoyalarni tushunish yoki o'yinlarda g'alaba qozonish orqali osonroq o'rganadilar. Agar xohlasalar, o'zlari ishtirokidagi o'yinlar orqali o'rgangan ma'lumotlarini mustahkamlab oladilar. Bir tomondan, til bilan ifodalangan kontent bolalar hayoti va kundaligi bilan bog'liq bo'lishi kerak, boshqa tomondan, bolalarni muloqotga chorlaydigan faoliyat yoki vazifalar qiziqarli va muhim bo'lishi lozim. Bolalar mashg'ulot davomida o'zlarini o'yinning bir qismi sifatida tushunadilar va huddi asar qahramonidek o'zlarini tutadilar, harakat qiladilar.

Maktabgacha yoshda, odatda, chet tillarni o'rganish hayotiy situatsiya va o'yinlarga asoslangan harakat usullaridan foydalangan tarzda amalga oshirilganda juda samarali hamda muvaffaqiyatli bo'ladi. Agar o'yinli-syujetli situatsiyalar orqali chet tili o'rgatilsa, barcha bolalar bajonu-dil ishtirok etadilar, chunki ular shu tarzda o'sha situatsiyaning bir bo'lagi ekanligini his qiladilar. Bolalar chet tili bilan, birinchi navbatda, o'z xonalarida birga "yashaydilar". Shuning uchun xonada muloqot imkoniyati bo'lsa, u ham chet tilida bo'lishi lozim. Bolalar nafaqat yo'riqnomalarni tushunish bilan cheklanib qolmasdan, balki chet tili orqali o'z ehtiyojlarini ifodalashlari ham mumkin. Shu nuqtai nazardan, ingliz tilida gaplashadigan shaxslar (ona tili bo'lganlar) bilan muloqot qilish va ularni xonaga taklif etish foydali hisoblanadi. Konstruktiv yondashuvga ko'ra, bolalar imkon qadar ko'proq tilda o'zlari so'zlarning mazmunini, qoidalarni bilib olishlari kerak. Bu, shuningdek, ularning asosiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Barcha bolalar singari, ular ham turli xil ta'lim uslublariga ega. Bolalar uchun mo'ljallangan ta'lim barcha uslublarni hisobga oladi. Taktik va kinestetik o'rganish turlari boladan alohida e'tibor talab qiladi. Maktabgacha ta'limda bolalarning iqtidorlari, malakalari, bilimlari va qiziqishlari kengroq bo'ladi. Chet tilini o'rganish, shuningdek, o'rganuvchining yaxshi tushunish qobiliyatiga bog'liqdir. Chet tilini o'rgatish mobaynida har bir bolaning harakati uchun rag'bat berib borish talab etiladi. Ularda akustik, kinestetik, ritmik va vizual farqlashni rivojlantirish kerak. Bolalar tez o'rganadilar, lekin tezda unutadilar. Shuning uchun nutqni bir necha bor takrorlab, shu mavzuga oid o'yin yoki tarqatmalar orqali bolalarning esida qoldirishga yordam berish mumkin.

Xorijiy tillarni muvaffaqiyatli o'rgatish keng qamrovli usullarni talab qiladi. Bunga yana bir misol sifatida, bolalarga ingliz tilidagi yoki o'zlari o'rganayotgan tildagi "listening" ya'ni eshittirishlarni qo'yib berish hamda bu bolaga qanchalik ta'sir qilishini kuzatish zarur. Agar ularga bu eshittirishlar tushunarsiz bo'lsa, undanda osonroqlarini tinglatish lozim. Shuningdek, "listening"dagi so'zlarning avval tarjimasini yozdirib, ularga ma'nosini tushuntirish hamda nutqiy faoliyatda qanday qo'llanilishini ko'rsatish kerak. Albatta, bu bolalarning kayfiyatiga va mashg'ulotga bo'lgan qiziqishlariga ta'sir qiladi. Bundan tashqari, bolalarni mashg'ulotga qiziqtirish va ingliz tilini yaxshi o'rganishlari uchun ko'plab metodikalar mavjud. Masalan, barchamizga ma'lumki, pedagoglar bola xatolarini qizil ruchkada tekshiradilar. Aksincha, tarbiyachilar yashil ruchkada ularning to'g'ri yozilgan so'zlarini tekshirib, ularni rag'batlantirsalar, ya'ni e'tiborni kamchilikka emas, yutuqqa qaratsalar, bolada o'ziga bo'lgan ishonch va fanga bo'lgan qiziqish ortadi. Bundan tashqari, bolalar fikrini jamlash uchun "3-4-5-6" metodikasi ham qo'l keladi. Ya'ni, mashg'ulot boshida doskaga 3–4–5–6 ta katakli jadval chizilib, ulardan o'tgan mashg'ulotda yodlangan so'zlarni shu katakka joylashtirish so'raladi. Bu metodika bolalar diqqatini jamlashga va o'tgan mavzuni eslab qolishga yordam beradi.

Yana bir metodikalardan biri bu "80/20" usuli. Bu usul pedagoglar uchun juda foydali bo'lib, bolalarni to'g'ri yo'naltirish va bilimini oshirishga xizmat qiladi. Misol uchun, tadbirkorlar orasida bir gap bor: mijoz 20 foiz, tadbirkor 80 foiz gapirsa, natija 30 foiz bo'ladi, aksincha, tadbirkor 20 foiz, mijoz 80 foiz gapirsa, natija 100 foiz bo'ladi. Bu yerda tarbiyachi 80 foiz bolalarning faolligini oshirishi, 20 foizi esa ularni yo'naltirib turishini anglatadi. Shunda 100 foiz bola mashg'ulotni yaxshi o'zlashtiradi. Ma'lumki, erta yoshdagi bolalarning chet tilini o'zlash-



tirish imkoniyatlari beqiyosdir. Hatto K.D. Ushinskiy ham shunday deb yozgan edi: “Bola biz bir necha yil ichida o'rgana olmaydigan darajada chet tilini bir necha oyda o'rganadi”.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tilini o'qitishda quyidagi o'yinlardan foydalanish tavsiya etiladi:

- Vaziyatli o'yinlar;
- Raqobatbardosh o'yinlar;
- Ritmik musiqiy o'yinlar;
- Badiiy-ijodiy o'yinlar.

Vaziyatli o'yinlar – turli sabablarga ko'ra aloqa vaziyatlarini simulyatsiya qiladigan rol o'ynash o'yinlarini o'z ichiga oladi. Rol o'ynash – bu bolalarning muayyan rollarni bajarishi, turli xil hayotiy vaziyatlarni aks ettiradigan o'yin faoliyatidir. Masalan, sotuvchi–xaridor, shifokor–bemor va boshqalar.

Raqobatbardosh o'yinlar – lug'at va savodxonlikni targ'ib qiluvchi ko'plab o'yinlarni o'z ichiga oladi. Bu turdagi o'yinlarga krossvord, kim oshdi savdolari, buyruqlarni bajarish va shu kabi o'yinlar kiradi.

Ritmik musiqiy o'yinlar – har qanday an'anaviy o'yinlardan farqli ravishda, masalan, sheriklar tanlovi bilan raqs tushadigan o'yinlar bo'lib, bu muloqot qobiliyatlarini shakllantirishga emas, balki nutqni yaxshilashga yordam beradi.

Badiiy-ijodiy o'yinlar – bolaning badiiy ijod chegarasida turgan faoliyati bo'lib, ular orqali bolalarning ichki dunyosini kashf qilish mumkin. Bundan tashqari, multfilmlar ham bolalar uchun ingliz tilini o'rganishda eng yaxshi yordamchi hisoblanadi. Bolalar multfilmlarni yaxshi ko'radilar va ularni ketma-ket tomosha qilish ularga ijobiy kayfiyat bag'ishlaydi. Shuning uchun ingliz tilidagi multfilmlar bir vaqtning o'zida bolalarning ijobiy-kommunikativ sifatlarini shakllantirish bilan birga chet tilini o'rgatishning ko'plab muammolarini hal etishga yordam beradi.

Maktabgacha ta'limda ingliz tilini o'rganish “Shexter” usuliga asoslanadi. Bu usul “nazariyadan amaliyotga” klassik modelga emas, balki teskari, tabiiyroq idrok tizimiga asoslanadi. Bunda bolalarga ona tilimizni o'rgatish ancha qulay. Yosh bolalar qanday gapirishni bilmaydilar. O'qituvchilar tomonidan kerakli jumlar va nutq qismlarini qurish qoidalari tushuntirilib, didaktik o'yinlar orqali ingliz tili zamonaviy usullarda o'rgatiladi. Bunda (salomlashish, xayrlashish, qisqa mashqlar, ingliz tilida qabul qilingan xushmuomalalik formulalaridan foydalanish) bolalarga chet tili aloqasini o'rnatishga, ingliz tiliga o'tishni yengillashtirishga, mashg'ulotning boshlanganini va ma'lum bir bosqichidan o'tayotganini ko'rsatishga yordam beradi. Metodning muvaffaqiyatli bo'lishidagi eng muhim shart – bolalarning nutq-fikrlash faoliyatini faollashtirish va ularni chet tili muloqotiga jalb qilishdir.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bolalarda ingliz tilini o'qitishda ularning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, chet tilini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish va ehtiyojni to'la qondirishga yordam beruvchi pedagogik texnologiyalarga asoslangan zamonaviy didaktik ishlanmalarni tayyorlash va ularni amalga oshirishning mustahkam mexanizmini ishlab chiqish muammoning amaliy yechimini ta'minlaydi. Yosh bolalarni ingliz tilini o'rganishga qiziqitirish va rag'batlantiruvchi turli vaziyatlarni hosil qilish hamda ularni unda faol ishtirok etishlarini ta'minlash barcha mavjud imkoniyatlardan foydalanishni talab qiladi. Bu ayniqsa muhim ahamiyatga ega.

Bolaning tayyorligi shundan iboratki, har qanday bola alohida shaxs – individ hisoblanadi, tabiiyki, ulardagi rivojlanish bosqichlari ham bir-biridan farq qiladi. Psixologlarning fikricha, bolani erta yoshdan gapirishga majbur qilish yoki uni tengdoshlariga qiyoslab rivojlantirishga harakat qilish ko'p hollarda aks ta'sirini beradi va ijobiy natija bermaydi. Maktab yoshidagi bolalarga chet tilini o'rgatishda psixologik xususiyatlarni, ya'ni ularning qiziquvchanliklari va serhafsasaliklarini inobatga olish lozim. Shuningdek, bolalar uzoq muddat davomida o'z diqqatlarini bir turdagi faoliyatga qarata olmasliklarini yodda tutish zarur.

Yana bir samarali metodlardan biri – ularning o'zlari yoqtirgan va sevib o'ynaydigan narsalaridan foydalanilgan holda o'rgatishdir. Ma'lumki, ota-ona farzandi uchun birinchi raqamli shaxslardir. Shu sababli ularning ta'lim-tarbiyasi hamda bilim olishlari uchun, avvalo, ota-onalar javobgar hisoblanadilar. Shuningdek, ularda ilk qiziqishni uyg'otish va ma'lum bir yo'nalishga boshlash uchun ota-onalarning ahamiyati kattadir. Bunda ko'rish mumkinki, bola o'zining sevimli o'yinchog'iga yoki kitobiga qiziqishi boshqa narsalardan ko'ra kuchliroq bo'ladi. Shu orqali bola yangi so'z yoki terminni o'rganganida, uni o'sha yoqtirgan narsasi orqali o'zlashtiradi va sevimli o'yinchog'i orqali o'sha so'z ham unga yoqimli bo'lib qoladi.

Umumiy qilib aytganda, chet tilini o'rganishni bolaning juda erta yosh davrlaridan boshlash ma'qul hisoblanadi. Kichik yoshdagi bolalarning miya faoliyati to'xtovsiz o'sish va rivojlanishda davom etayotgani uchun ular miya faoliyati to'liq shakllanib bo'lgan kattalarga nisbatan yangi ma'lumotni ancha tezroq qabul qilish qobiliyatiga



egadirlar. Ushbu o'ziga xosliklarni inobatga olgan holda mashg'ulotlarni rejalashtirish maqsadga muvofiqdir. Masalan, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga chet tilini o'qitishda asosan o'yin, rasmlar, qo'shiqlar va she'rlardan, multfilmlardan foydalanish samarali usul hisoblanadi. Chunki ulardagi asosiy tushuncha miyada rasmi tasvir shaklida qoladi. Bu esa, o'z navbatida, bizdan barcha o'rgatiladigan narsalarni shunga mos ravishda tasvirlashni talab etadi.

Maktabgacha ta'limda tahsil olayotgan bolalarning psixikasi "qiziqish" va "yoqtirish" kategoriyalariga asoslanadi. Yosh bolalar tabiatan yorqin va chiroyli narsalarga juda ham qiziqadilar va ularga ko'p e'tibor beradilar. Buni yosh bolalarning chiroyli ustozlarni va xushmuomala pedagoglarni yoqtirishidan ham yaqqol ko'rish mumkin. Shuning uchun ularga uzatilayotgan ma'lumotlar, albatta, ularning qiziqishini inobatga olgan holda yetkazilishi va rangli materiallar hamda rasmi qo'llanmalar bevosita ta'lim jarayonida qo'llanishi lozim. Demak, maktabgacha ta'lim muassasasidagi o'quv jarayonida o'qitish metodikasi, avvalo, bolalarning qiziqishlariga asoslanishi zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Pedagoglar bolalariga shu kabi metodikalarni qo'llashsa, mashg'ulot juda ham qiziqarli hamda bola uchun foydali bo'ladi. Mashg'ulotlar qanchalik qiziqarli bo'lsa, bola mashg'ulotga emas, xuddi dam olishga kelgandek fanni maroq bilan o'rganadi. Shu sababli tarbiyachilar bu metodlardan foydalanishlari lozim. Shunday qilib, boshlang'ich ta'lim yoshidagi bolalarga chet tilini o'qitishda o'yin texnologiyasidan hamda axborot-kommunikatsiya usullaridan foydalanish bolalarning proksimal rivojlanish zonasiga yo'naltirilgan bo'lib, pedagogik maqsadni bola uchun jozibali faoliyat motivi bilan birlashtiradi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga chet tilini o'rgatishda yoshiga mos ijodiy va didaktik o'yinlar hamda ochiq mashg'ulotlar orqali ularning shaxsiy kamolotini zamonaviy usullar asosida shakllantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 30- sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 8- maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-son qarori.
3. M. Berdiyeva, S. Bo'ranova. Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda nutq o'stirish mashg'ulotlari orqali bolalarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishning samarali usullari.
4. Muminova F.M. Ingliz tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish.
5. "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent, 2012.
6. David A. J., Eggen P., Kauchak P. O'qitish usullari: Talabalarning bilim olishini targ'ib qilish. – 2002.
7. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi. – T.: O'qituvchi, 2016- yil.
8. <https://blog.xabar.uz/post/maktabgacha-ta-lim-jarayonida-xorijiy-tillarni-o-qitishning-zamo>
9. <https://goaravetisyan.ru/uz/sekret-y-obucheniya-doshkolnikov-angliiskomu-vozrastnye/>
10. <https://spbtp.ru/uz/igra-aktivnyi-metod-obucheniya-nemeckomu-yazyku-aktivnye-metody>
11. <https://cyberleninka.ru/article/n/xorijiy-tillarni-oqitishning-samarali-usullari-nemis-tili-misolida>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.